

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI



ILMIY  
AXBOROTNOMA

2023

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI  
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY



ISSN:2181-0427  
[journal.namdu.uz](http://journal.namdu.uz)





**Bosh muharrir:** Namangan davlat universiteti rektori S.T.Turg'unov

**Mas'ul muharrir:** Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sh.N.Ataxanov

**Mas'ul muharrir o'rinbosari:** Ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i O.Imomov

#### **T A H R I R H A Y ' A T I**

**Fizika-matematika fanlari:** akad. S.Zaynobiddinov, akad. A.A'zamov, f-m.f.d., prof. B.Samatov, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, f-m.f.n., dots. B.Abdulazizov, f-m.f.n., dots. A.Xolboyev.

**Kimyo fanlari:** akad. A.To'rayev, akad. S.Nigmatov, k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, k.f.d., prof. T.Azizov, k.f.n., dots. T.Sattorov, k.f.n., dots. A.Hurmamatov., PhD. D.S.Xolmatov.

**Biologiya fanlari:** akad. K.Tojibayev, akad. R.Sobirov, b.f.d., dots. A.Batashov, b.f.d. N.Abdurahmonov, b.f.d., dots. F.Kushanov, b.f.d. A.Kuchboyev, b.f.n., dots. D.Dexqonov.

**Texnika fanlari:** t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. S.Yunusov.

**Qishloq xo'jaligi fanlari:** g.f.d., prof. B.Kamalov, q-x.f.n., dots. A.Qazaqov.

**Tarix fanlari:** akad. A.Asqarov, s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov.

**Iqtisodiyot fanlari:** i.f.d., prof. N.Maxmudov, i.f.d., prof.O.Odilov.

**Falsafa fanlari:** f.f.d., prof. M.Ismoilov, f.f.n., Z.Isaqova, f.f.d., G.G'affarova, f.f.n. dots. L.Yuldasheva, f.f.n., dots. T.Ismoilov, PhD. A.Abdullayev.

**Filologiya fanlari:** fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, PhD. H.Solixo'jayeva, PhD. U.Qo'ziyev, PhD. H. Sarimsoqov, fil.f.d., N.Dosboyeva, fil.f.n., dots. S.Misirov.

**Geografiya fanlari:** g.f.d., dots. B.Kamalov, g.f.d., prof. A.Nigmatov.

**Pedagogika fanlari:** p.f.d., prof. U.Inoyatov, p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. O'.Asqarova, p.f.n., dots. M.Nishonov, p.f.n., dots. A.Sattarov, p.f.n., dots. M.Asqarova, p.f.n., dots. Sh.Xo'jamberdiyeva, p.f.n., dots. S.Abdullayev.

**Tibbiyot fanlari:** b.f.d. G'.Abdullayev, tib.f.n., dots. S.Boltaboyev.

**Psixologiya fanlari:** p.f.d., prof Z.Nishanova, p.f.n., dots. M.Maxsudova.

**Texnik muharrir:** N.Yusupov.

**Tahririyat manzili:** Namangan shahri, Boburshox ko'chasi, 161-uy

**Faks:** (0369)227-07-61 **e-mail:** [info@namdu.uz](mailto:info@namdu.uz)

Ushbu jurnal 2019 yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan fizika-matematika, kimyo, biologiya, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"NamDU ilmiy axborotnomasi – Научный вестник НамГУ" jurnali O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining 17.05.2016-yildagi 08-0075 raqamli guvohnomasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA) tomonidan 2020-yil 29-avgust kuni 1106-sonli guvohnomaga binoan chop etiladi. "NamDU Ilmiy Axborotnomasi" elektron nashr sifatida xalqaro standart turkum raqami (ISSN-2181-1458)ga ega NamDU Ilmiy-texnikaviy Kengashining 2023-yil 10-fevraldagii kengaytirilgan 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ilmiy to'plam sifatida chop etishga ruxsat etilgan (Bayonnoma № 2). Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI 2023**



## RAQAMLI JAMIYATDA YOSHLAR ONGIDAGI TRANSFORMATSIYALAR: FALSAFIY TAHLIL

Gulchehra G'affarova,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori,  
falsafa fanlari doktori,  
[gafforovagulchehra3@gmail.com](mailto:gafforovagulchehra3@gmail.com)

**Annotatsiya.** Bugungi davr dunyoda raqamlashtirish, axborotlashuvning kuchayib borishi, neyrobiologiya va sun'iy intellekt asosida insonning ongiga, hatto qaror qabul qilishimizga ham ta'sir etish imkoniyatining rivojlanib borishi ijtimoiy taraqqiyotda oldin kuzatilmagan butunlay yangi strukturaviy o'zgarishlar, transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada raqamlashtirish va raqamli jamiyat yoshlar ongida qanday o'zgarishlarga olib borishi falsafiy tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar, ong, yoshlar ongi, raqamlashtirish, raqamli jamiyat, tafakkur, o'zgarish, klip tafakkur, kreativlik, divergent tafakkur, konvergent tafakkur, kognitiv transformatsiyalar, strukturaviy o'zgarishlar.

## ТРАНСФОРМАЦИИ МОЛОДЕЖНОГО СОЗНАНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ

Гулчехра Гаффарова,  
Чирчикский государственный педагогический университет, профессор, доктор  
философских наук, [gafforovagulchehra3@gmail.com](mailto:gafforovagulchehra3@gmail.com)

**Аннотация.** В современном мире цифровизация, увеличение информатизации, развитие способности влиять на человеческое сознание и даже принятие нами решений на основе нейробиологии и искусственного интеллекта вызывают совершенно новые структурные изменения в общественном развитии, не наблюдавшиеся ранее. В данной статье представлен философский анализ того, как цифровизации и цифровое общество приведут к изменениям в сознании молодежи.

**Ключевые слова:** молодежь, сознание, молодежное сознание, цифровизация, цифровое общество, мышление, изменение, клиповое мышление, креативность, дивергентное мышление, конвергентное мышление, когнитивные трансформации, структурные изменения.

## TRANSFORMATIONS OF YOUTH CONSCIOUSNESS IN A DIGITAL SOCIETY: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS

Gulchehra Gaffarova  
Chirchik State Pedagogical Institute Department of Social Sciences, Professor  
[gafforovagulchehra3@gmail.com](mailto:gafforovagulchehra3@gmail.com)

**Annotation.** In the modern world, digitalization, increasing informatization, the development of the ability to influence human consciousness, and even our decision-making based on neurobiology and artificial intelligence are causing completely new structural changes in social development that have not been observed before. This article presents a philosophical analysis of how digitalization and the digital society will lead to changes in the minds of young people.

**Key words:** *youth, consciousness, youth consciousness, digitalization, digital society, thinking, change, clip thinking, creativity, divergent thinking, convergent thinking, cognitive transformations, structural changes.*

### **Kirish**

Yarim asrdan ko'proq vaqtdan beri davom etayotgan jamiyatni raqamlashtirish so'nggi o'n yillikda va ayniqsa, so'nggi ikki yilda jadallik bilan kuchaydi, bu esa COVID-19 epidemiyasi bilan bog'liq muammolar bilan global qarama-qarshilikni belgilab berdi. Aynan so'nggi yillarda masofaviy ta'lim va tadbirlar, masofaviy (gibrid) bandlik, telemeditsina va elektron demokratiya sezilarli darajada mashhur bo'ldi.

Bugungi kunda har bir davlatda milliy madaniyat, milliy identiklik, o'ziga xoslikni saqlashga intilishning ham ortib borayotganligi e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, dunyoda raqamlashtirish, axborotlashuvning kuchayib borishi, neyrobiologiya va sun'iy intellekt asosida insonning ongiga, hatto qaror qabul qilishimizga ham ta'sir etish imkoniyatining rivojlanib borishi, ijtimoiy taraqqiyotda oldin kuzatilmagan butunlay yangi strukturaviy o'zgarishlar, transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga global jarayonlar butun dunyo yoshlari orasida umumiy qadriyatlar, ongidagi umumiy o'xshashliklarni ham shakllanishiga olib kelmoqda. Albatta, sodir bo'layotgan raqamlashtirish jarayonlarining nochiqlik va noaniqlik xususiyati har bir mamlakat yoshlarining ongi, qadriyatlari, ma'naviy ruhiy olamiga ijobiy va salbiy o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan va dunyo ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi Sharq mutafakkirlari hamda Aristotel, Suqrot, Platon kabi G'arb faylasuflarining yoshlar dunyoqarashi, tafakkur tarzi va ruhiyatini barqaror rivojlantirish borasidagi qarashlari mavjud.

Mahalliy olimlardan M.Quronov, G.Aripova, B.Adizov, U.Inoyatov, UR.Safarova, B.Umarov, O.Jamoldinova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjayev, Ch.Shakirova, Sh.Shodmonova, N.M.Egamberdiyevlarning tadqiqot ishlarida yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish omillari, ularning jamiyatga oson ijtimoiylashuvini ta'minlash, ijodiy, kreativ, nostandart tafakkur tarziga o'rgatish, ma'naviy-axloqiy, badiiy-estetik dunyoqarashini qaror toptirish, ularda milliy qadriyatlarga hurmat va tolerantlik hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari; J.Tulenov, M.Abdullayeva, G.Tulnova, G.G'affarova, L.A.Qurbonova, G.Jalolova, F.Choriyev, Sh.Kubayeva, E.Yusupovlarning ilmiy ishlarida inson tafakkuri va dunyoqarashini rivojlantirishning falsafiy-metodologik tomonlari; Z.Nishonova, M.Davletshin, N.Safayev, A.Jabborov, E.G'oziyev, R.Sunnatovlarning tadqiqotlarida esa inson tafakkuri muammosining psixologik xususiyatlari yoritib berilgan.

Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviyatiga, tafakkuriga, ongiga ta'siri masalasining ba'zi bir jihatlari o'rgangan olimlar qatoriga ingliz olimlaridan Peter E. Mayeux, Steve Jones, rus olimlaridan Ye.Vayner, Ye.Gorniy, V.Pasko, V.Suxarova, O.Krishtanovskaya, shuningdek, o'zbek olimlaridan filologiya fanlari nomzodi D.Rashidova, faylasuflardan J.Ramatov, I.Saifnazarov,

A.Mo'minov, A.Muxtorov, B.Xusanov, G.G'affarova, N.Saydaliyeva, K.Mavlyanova kabilar tomonidan nashr etilgan maqolalarni kiritish mumkin.

Maqolani tayyorlashda tarixiylik, tanqidiylik, tizimli metodlardan foydalanildi.

### **Natijalar**

M.Quronov, A.Qodirov, Sh.Akramovalar tomonidan "Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish" monografiyasida yoshlarni etib tarbiyalash, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy tarmoqlardagi yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishining oldini olish kabi masalalar tahlil etilgan [1].

G.G'affarova va M.N.Abdullayevalar o'zlarining tadqiqotlarida jamiyat a'zolari, jumladan yoshlarda mehr va muhabbat tuyg'usini rivojlantirish orqali jamiyatning ma'naviy taraqqiyotini ta'minlash mumkinligi g'oyalarini ilgari surganlar [2, 14-15].

G.G'affarova ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar tafakkuri va faolligiga ta'siri, axborotlashgan jamiyatda ma'naviyatdagi o'zgarishlar, yangilanayotgan O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ma'naviyatning o'rnini [3-6] yoritib bergan.

### **Muhokama**

Darhaqiqat, XXI asr boshlari jahonda hal qiluvchi omillari – axborot va bilim bo'lgan axborotlashgan jamiyatning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Mazkur jamiyatning rivojlanish evolyutsiyasi bilim jamiyatidan tarmoqli jamiyatga, undan raqamli jamiyatga transformatsiyalanishi bilan ifodalanadi. Ma'lumki, axborotlashgan jamiyat taraqqiyoti natijasida aholining ko'p qismi axborotlarni o'zida qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va qo'llash bilan band bo'ladi. Shuningdek, mazkur jamiyatning shakllanish bosqichlarini axborotlashtirish va raqamlashtirish tashkil etadi.

Xo'sh, raqamli jamiyat qanday jamiyat? Uning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor? Bunday jamiyat yoshlar ongiga qanday ta'sir etadi yoki yoshlar ongida qanday o'zgarishlarga olib keladi?

"Raqamli jamiyat" atamasining paydo bo'lishi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lib, jamoatchilik amaliyotida muvaffaqiyatli qabul qilingan. Ushbu texnologiyalar tezkorlik bilan elektron axborot texnologiyalarini joriy etish bosqichida qo'llanilayotgan analoglarini almashtirib, axborot uzatishning sezilarli darajada yuqori sifatini, aniqligini va axborot almashinuvi hajmining o'sishi sharoitida juda muhim bo'lgan axborot mahsulotlarining ixchamligini namoyish etmoqda. Darhaqiqat, «raqamli jamiyat» atamasi raqamli axborotning mavjud resurslaridan, tegishli texnologiyalardan va jamiyatning ijtimoiy tuzilmalaridan kelib chiqadi. Bunday jamiyatning istiqbollari kelajakda jamiyatning rivojlanish talablari, mavjud axborot resursi, jamiyatda axborot almashish texnologiyalarining rivojlanishi, uning ijtimoiy tuzilishini ushbu jarayonlar bilan muvofiqlashtirish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Aytish mumkinki, raqamli jamiyat - bu butun dunyo muammosi bo'lib, uning yechimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan boshqariladigan yangi global jamiyatni yaratishdir. Bunday jamiyatning asosi global telekommunikatsiya tarmoqlari tizimlari orqali axborotni to'playdigan, qayta ishlaydigan, ishlab chiqaradigan va tarqatadigan mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, yangi raqamli jamiyat IT jamiyatidir.

Ushbu jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - zamonaviy raqamli (axborot-kommunikatsiya) texnologiyalari yordamida ko'plab hayotiy, kognitiv, estetik va boshqa ehtiyojlar qondirilmoqda. Natijada u ko'p vaqtni bo'shatadi, yangi muammolarni hal qilish imkonini beradi, nafaqat ma'lum bir joy, balki butun sayyora miqyosida aloqa ko'lamini

kengaytiradi. Ayniqsa, intellektual mehnat jismoniy mehnat o'rnini egallaydi. Shu jihatdan ham «raqamli jamiyat - bu o'z-o'ziga xizmat qilish uchun raqamli qurilmalardan foydalanadigan texnokratik jamiyat»dir [11, 9]. Bu ko'p vaqtni bo'shatadi va ijtimoiylashuv uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Darhaqiqat, raqamli texnologiyalar keng miqyosda ishlash uchun vositadir, shu bilan birga ijtimoiy o'zgarishlar, innovatsiyalarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish mexanizmi, muloqot uchun eng muhim platforma hisoblanadi. Yoshlar ushbu o'zgarishlarning faol sub'ekti bo'lib, uning madaniyatini yangi ijtimoiy dunyoni barpo etuvchi keng qamrovli ommaviy axborot vositalari madaniyati sifatida tushunish kerak.

Yoshlar raqamli innovatsiyalarni tezda o'zlashtirgan eng mobil ijtimoiy-demografik guruhdir. M. Mid kelajakka yo'naltirilgan madaniyat haqida gapirganda ta'kidlagan "prefigurativ madaniyat" xususiyatlari zamonaviy jamiyat uchun juda mos keladi, bu yerda yoshlar nafaqat otalardan o'rganishadi, balki ularga ko'p narsalarni o'rgatadilar, chunki ular o'zlari madaniy tendentsiyalarni faol yaratadilar[9]. Bu yerda aytilgan prefigurativ madaniyat bu «innovatsiyalar shu qadar tez sur'atda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan madaniyatdirki, bunda kattalar populyatsiyasi unga ergashmaydi» [9]. Bunda yosh avlodning ma'naviy salohiyati hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, unda keksalarda bo'lmagan umumiy tajriba shakllanadi. Shu bilan birga, yoshlar ham kattalarnikiga qaraganda ko'proq himoyasiz guruhdir, chunki ular kamroq moslashish qobiliyatiga ega. Albatta yoshlar nafaqat kattalardan, balki bir-biridan ham o'rganadilar, kattalar ham tengdoshlaridan o'rganadilar va kichiklarga o'z tajribalarini o'tkazadilar. Madaniyatning bu turi an'analarni saqlaydi, lekin yangiliklarni ham olqishlaydi. Biroq, shu bilan birga, keksa avlodga bo'lgan munosabat o'zgaradi - u o'zining so'zsiz vakolatini yo'qotadi. Talabda qolish uchun ular ham o'rganishlari kerak. Masalan, endi keksalar kompyuterni o'zlashtirib, axborot texnologiyalari olamiga integratsiyalashishi kerak, aks holda ular ortda qolib ketishadi.

Raqamli jamiyatdagi ta'lim funktsiyasi bolalar qo'liga o'tadi, bu esa oqsoqollarni ko'proq qaram qiladi va shuning uchun yanada zaifroq qiladi. Yosh avlod texnologiyalarning rivojlanishidan sezilarli darajada xabardor bo'lib, tajriba tashuvchisi sifatida harakat qila boshlaydi. Bu ularning kattalar bilan munosabatlari iyerarxiyasini qayta qurishga olib keladi va boshqa turdagi muloqotni talab qiladi.

Albatta, raqamlashgan jamiyat o'z qonunlarini belgilaydi. Biroq, yangi avlod o'zi haqida bunday narsalarni tasavvur qilmasligi kerak. Ba'zi sohalarda ular keksalarga saboq berishi mumkin, bu to'g'ri, lekin ba'zi joylarda keksa avlodning tajribasi va bilimi ajralmas va bundan voz kechib bo'lmaydi.

Darhaqiqat, raqamli jamiyatda shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda o'ziga xoslik mavjud bo'lib, ular axborotga boy ijtimoiylashuv sharoitida shakllangan tarmoq xarakteriga ega bo'ladi, bu yerda aloqa maydoni ijtimoiy tarmoqlarga o'tadi. Shu bilan birga, ba'zan ijtimoiy tarmoqlarda siz kim bilan muloqot qilayotganingiz, u bir kishimi yoki ular ko'pimi, u qaysi joyda va qaysi vaqtda joylashgani, ularning strategiyalar, aslida qanday vazifalarni hal qilishadi, ularning qadriyatlar tizimi qanday, ular qanchalik manipulyatsiyaga ega ekanligi noaniq bo'lib qoladi. Bu dunyoda yanada moslashuvchan bo'lishni, shuningdek, zamonaviy ijtimoiylashuv bugungi kunda kibermakonsiz amalga oshirilmasligini yodda tutishni talab qiladi. Ayniqsa, jamiyatning salmoqli qismi bo'lgan yosh avlod internetda ko'p vaqtini o'tkazadi.

Yangi texnologiyalar ob'ekt dunyosining rasmini belgilaydi, inson ongini shakllantiradigan, o'zlashtirilayotgan voqelik qiyofasini quruvchi vositaga aylanadi. Raqamli texnologiyalar doimiy ravishda o'sib boruvchi va yangilanadigan ma'lumotlarni ajratib olish va qo'lga kiritish, keyin esa uni ichkilashtirish imkonini beradi. Ular shaxsning ichki makoniga qurilgan bo'lib, xatti-harakatlar va dunyo bilan munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi. Ichki aqliy faoliyat raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan tashqi ob'ektiv faoliyatni ichkilashtirish natijasi bo'ladi. Yangi texnologiyalardan foydalangan holda yaratilgan tasvir esa dunyoning inson ongiga kirib boradigan tasvir vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, zamonaviy o'smirlar uchun rivojlanishning ijtimoiy holati tarmoq o'zaro ta'sirida vositachilik qiladi.

Shuningdek, A.Marey fikricha "raqamlashtirish – bu bizning fikrlash tarzimiz, harakatimiz, atrof-muhit va bir-birimiz bilan aloqa qilishimizning paradigmal o'zgarishi" [10]. Ya'ni, raqamlashtirish aloqa va o'zaro munosabat paradigmasining o'zgarishidir. Bu ham yoshlar ongidagi o'zgarishlarga ta'sir etadigan omillardan biridir. Ammo bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, bugungi kunda shaxs axborot muhitining noto'g'ri va buzg'unchi ta'siri, autistik simptomlarning shakllanishi va boshqa identifikatsiya buzilishlarining nishoniga aylanmoqda [7-8]. Vaholanki, axborot oqimi (shu jumladan zararni o'z ichiga olgan), katta hajmdagi aloqalar, yosh avlod tafakkurini kesish (parchalanish, yuzakilik), haqiqiy ijtimoiy aloqalarni virtual aloqalar bilan almashtirish - bu buzilishlarning omillari va ko'rinishidir.

Raqamlashgan jamiyatda yoshlar ongidagi transformatsiyalar quyidagilarda namoyon bo'ladi, ya'ni birinchidan, raqamli jamiyat dunyosi insonparvar bo'lishni to'xtatadi, qadriyatlar insonning o'zidan texnologiya qadriyatlariga o'tadi. Bunda katta miqdordagi inson resurslarini bo'shatilishi natijasida yoshlarda intellektual faoliyatning ahamiyatini oshiradi, jismoniy mehnatni bajarishga sarflangan kuchlarni kamaytiradi, bu esa o'zini o'zi anglashning ko'payishiga yordam berishi kerak. Shuningdek, barcha paydo bo'layotgan innovatsiyalar insonning o'zini siqib chiqaradi, ishsizlikni keltirib chiqaradi, inson resurslarini robotlar bilan almashtiradi, shaxslararo o'zaro ta'sir makonini qayta quradi, uni ijtimoiy tarmoqlardagi keng ko'lamli va noma'lum auditoriya bilan ommaviy aloqa tekisligiga o'tkazadi. Darhaqiqat, ba'zi hollarda yoshlarda stressni kuchaytiradi, farovonlikni buzadi, og'ishlarga olib keladi, shaxsni ijtimoiy makonda joydan mahrum qiladi.

### **Xulosa**

Albatta, raqamli jamiyat o'ta tez, o'ta beqaror, miltillovchi, o'zgaruvchan dunyoda shakllanmoqda, bu ravonlik, gibridlik va oldindan aytib bo'lmaydiganlik xususiyatlariga ega. Bir tomondan, noaniqlik - bu yangi ma'nolarni izlashni, paydo bo'lgan savollarga javoblarni va nima sodir bo'layotganini aniqlashni talab qiladigan qiyinchilik. Boshqa tomondan, bunga chidash kerak. Bu bizni me'yorlar va qadriyatlar tizimini tezda qayta qurishga majbur qiladi, bizni voqelikka kelishishga, uning o'zgarishi bilan bog'liq holda o'zgartirishga o'rgatadi. Noaniqlik dunyoni harakatchan va o'zgaruvchan qiladi, odamdan noma'lum narsalarni o'rganishga, unga ochiq bo'lishga, samarali an'analarni himoya qilishga, atrofdagi voqelikning betartibligini kutib olish uchun ularda yordam topishga tayyor bo'lishini kutadi. Bu sodir bo'layotgan noaniqliklarning kuchayishi natijasida yoshlar ongida o'zgarishlarga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Қуронов М., Қодиров А., Акрамова Ш. Ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш. – Тошкент: «Маънавият», 2018. -112 б.
2. Gaffarova G.G., Abdullayeva M.N. (2020). Tasavvufning kognitiv tizimi zamonaviy falsafa prizmasida. Academic research in educational sciences. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tasavvufning-kognitiv-tizimi-zamonaviy-falsafaprizmasida> (дата обращения: 15.01.2021).
3. G.G Gaffarova, N.Z. Saydaliyeva. (2020). The influence of social networks on youth thinking and activity. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. 6 (5), 105-108.
4. Г.Ғаффарова, А.Абдуллаев. (2021). Ахборотлашган жамиятда маънавий ҳаётнинг ўзига хос хусусиятлари. Academic research in educational sciences. Special Issue 2.
5. G. Makhmudova, G. G'affarova, G. Jalalova (2020). O'zbekistonda islohatlar jarayonini tahlil etish va amalga oshirishning konseptual-falsafiy metodologiyasi. 176 b.
6. G.G. Gaffarova, (2020). Strategy of activity and systematical approach. nternational Journal of Psyshosial Rehabilitation. London, United Kingdom, 24, Issue-5, May. - 6645-6651
7. Петрунева Раиса Морадовна, Васильева Валентина Дмитриевна, Топоркова Ольга Викторовна Студенческая молодежь в эпоху цифрового общества // Преподаватель XXI век. 2019. №1-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/studencheskaya-molodezh-v-epohu-tsifrovogo-obschestva> (дата обращения: 16.01.2023).
8. Бродовская Е. В., Домбровская А. Ю., Пырма Р. В., Синяков А. В., Азаров А. А. Влияние цифровых коммуникаций на формирование профессиональной культуры российской молодежи: результаты комплексного прикладного исследования // Мониторинг. 2019. №1 (149). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-tsifrovyyh-kommunikatsiy-na-formirovanie-professionalnoy-kultury-rossiyskoy-molodezhi-rezultaty-kompleksnogo-prikladnogo> (дата обращения: 16.01.2023).
9. Mead M. Culture and the world of childhood. Moscow: Nauka Publ.; 1988. 430 p. (In Russ.).
10. Marey A. Tsifrovizatsiya kak izmenenie paradigmy [Elektronnyy resurs]. — Rezhim dostupa: <https://www.bcg.com/ru-ru/about/bcg-review/digitalization.aspx> (хавола вақти: 15.03.2020).
11. Хазиева Н.О. — Цифровое общество: опыт философского осмысления проблемы // Философия и культура. – 2018. – № 4. – С. 8 - 13.
12. Gaffarova, G. G., & Jalalova, G. O. (2021). Human capital as the basis of society development. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (96), 455-460.
13. Berkinov O.T. (2022). Ijtimoiy tarmoq: yoshlar va “kelajak” // NamDU ilmiy Axborotnomasi, 3-son, -B.181-187.
14. G'affarova G.G', Yo'ldoshev A. (2022). Klaster tushunchasining falsafiy mohiyati // International scientific and practical conference “Modern psychology and pedagogy: problems and solutions”. – Angliya, 28 mart,-P.322-328.
15. Гаффарова Г. (2020). Человеческий капитал в условиях цифровизации Узбекистана. Интеллектуальная культура Беларуси: духовно-нравственные традиции и тенденции инновационного развития: материалы Пятой междунар. науч. конф. Т.2. – Минск: Четыре четверти, –С.72-75.
16. Ғаффарова Г.Ғ. (2020). Ахборотлашган жамиятдан рақамли жамият сари: фалсафий таҳлил. УзА Илм-фан булими (электрон журналы), 183-196.



|    |                                                                                                                                               |     |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 12 | <b>Elwendia boiss turkumi turlaridan ajratib olingan moddalarning antioksidantlik faolligini in vitro sharoitida aniqlash</b>                 |     |
|    | Mamatkulova I.E, Mustafakulov M.A, Abduraimov O.S,.....                                                                                       | 74  |
| 13 | <b>O'zbekiston respublikasining janubiy viloyatlari sharoitida maktab o'quvchilarining amaldagi ovqatlanishi va jismoniy taraqqiyoti</b>      |     |
|    | Rahmatullayev Y.Sh, Avliyoqulova M.B, Hakimova M.A,.....                                                                                      | 79  |
| 14 | <b>Определение остатков пестицидов в сельскохозяйственных продуктах тонкослойным методом и методом gx-ms</b>                                  |     |
|    | Жумабаева И.М, Джураев Т.А, Кушиев Х.Х,.....                                                                                                  | 84  |
| 15 | <b>Yumshoq bug'doyning qorakuya kasalligi haqida ma'lumotlar</b>                                                                              |     |
|    | Bekmuradov J.A, Amanov O. A,.....                                                                                                             | 90  |
| 16 | <b>Echkilar katta qorin syuqligining ayrim biokimyoviy ko'rsatgichlariga va mikroorganizmlar soniga ozuqalar kimyoviy tarkibining ta'siri</b> |     |
|    | Kuziyev M.S., Haydarov D.Ya,.....                                                                                                             | 94  |
| 17 | <b>Andijon shahrida joylashgan №1-son maktab o'quvchilarining (2-11 sinf) landolt testi asosida intellektual rivojlanish darajasi</b>         |     |
|    | Abduvaliyeva F.M, Xushmatov Sh.S,.....                                                                                                        | 100 |
| 18 | <b>"Jayron" ixtisoslashgan pitomnigi florasining tahlili</b>                                                                                  |     |
|    | Esanov H.Q,.....                                                                                                                              | 106 |

**09.00.00**

**FALSAFA FANLARI  
ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ  
PHILOSOPHICAL SCIENCES**

|    |                                                                                                    |     |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| 19 | <b>O'zbekiston harbiy xizmatchilari faoliyatida qahramonlik g'oyalarining tarbiyaviy ahamiyati</b> |     |
|    | Djo'raev F.Q,.....                                                                                 | 112 |
| 20 | <b>Milliy istiqlol mafkurasining ahamiyati</b>                                                     |     |
|    | Lutfullaev A.A,.....                                                                               | 118 |
| 21 | <b>Uzluksiz ma'naviy tarbiya strategiyasida ma'rifatli jamiyat qurish asosi</b>                    |     |
|    | Mo'ydinov A,.....                                                                                  | 123 |
| 22 | <b>Raqamli jamiyatda yoshlar ongidagi transformatsiyalar: falsafiy tahlil</b>                      |     |
|    | G'affarova G,.....                                                                                 | 128 |
| 23 | <b>Jadid mutafakkirlari qarashlarida adolat konsepsiyasi</b>                                       |     |
|    | Hamroyev S.S,.....                                                                                 | 134 |
| 24 | <b>Kreativ shaxs tushunchasi va uning falsafiy tahlili</b>                                         |     |
|    | Hojiyev R.B,.....                                                                                  | 140 |
| 25 | <b>Ijtimoiy kapital fuqarolik jamiyatining asosi</b>                                               |     |
|    | Uktamov N.I,.....                                                                                  | 146 |
| 26 | <b>IX-XV asrlar o'rta osiyo mintaqasida ijtimoiy-madaniy hayot</b>                                 |     |
|    | Normatova D.E,.....                                                                                | 150 |